

SOLIQ SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KPI TIZIMINING ROLI

O.X.Maxmudov

Toshkent davlat iqtisodiyot

Universiteti Andijon fakulteti

“Mutaxassislik, ijtimoiy gumanitar va
aniq fanlari kafedrası” professori

Iqtisod fanlari doktori

E-mail: maxmudovdiljon1965@gmail.com

M.N.Orziqulova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti “Iqtisodiyot”

yo’nalishi 2-boshqich talabasi

E-mail: malikaxon710@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliqtizimining davlat iqtisodiyotidagi o’rni va uning samaradorlihini oshirishda KPI tizimining ahamiyati yoritilgan. Maqola KPI tizimining soliq organlarida qo’llanilishi, korrupsiyani kamaytirishdagi roli haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Soliq tizimi, KPI tizimi, samaradorlik, korrupsiya, raqamlashtirish, soliq organlari, shaffoflik.

Annotation: This article covers the role of taxation in the state economy and the importance of the CPI system in increasing its efficiency. The article discussed the use of the CPI system in tax authorities, its role in reducing corruption.

Keywords: Tax system, KPI system, efficiency, corruption, digitization, tax authorities, transparency.

Soliq tizimi har bir davlatda muhim rol o’ynaydi. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi ma’lumotlariga ko’ra, 2024-yilda davlat budjetining 85% foizi soliq tushumlari hisobiga shakllangan. Bu raqam soliq tizimining mamlakat iqtisodiyotidagi o’rnini aniq ko’rishga yordam beradi. Bundan ko’rinib turibdiki, soliq bilan davlat budjetining katta qismi qoplanadi va kerakli sohalarga mablag’ ajratiladi. Shu sababli ham soliq tizimini takomillashtirish zarur. KPI — asosiy ishlash ko’rsatkichi (Key Performance Indicator) — xodimlar ish samaradorligini o’lchash va rag’batlantirish uchun qo’llaniladigan tizimdir. Bu tizim soliq organlarida ham keng joriy qilinmoqda. Asosiy maqsad — soliqchilar faoliyatini baholash, korrupsiyani kamaytirish va tizimni shaffoflashtirish. Maxmudov (2022) ta’kidlaganidek, KPI tizimi nafaqat natijalarni oshirishga, balki korrupsiyaga qarshi kurashishda ham samarali vosita hisoblanadi. Ushbu tizim yordamida soliq xodimlari ish natijalariga

ko'ra baholanadi va rag'batlantiriladi, bu esa ularning ishga mas'uliyat bilan yondashishini ta'minlaydi. Uning asosiy vazifasi shuki, xodimlarni ish samaradorligi oshirish va natijaga qarab rag'batlantirish hisblanadi. KPI tizimi soliq organlarida ham qo'llanilishining asosiy sabablaridan biri albatta korrupsiyani oldini olish hisoblanadi. Soliq organlarida korrupsiyani bartaraf etish uchun insofli soliqchilar rag'batlantirish oshirilmoqda. Mening fikrimcha oldin soliq tizimida to'liq ravishda shaffoflik mavjud emas edi. Ba'zi hollarda yig'ilgan soliqlar davlat budjetiga to'liq holatda tushmagan bo'lishi mumkin. Masalan, 2015-2018-yillar oralig'ida ayrim hududlarda soliq tushumlarini reja ko'rsatkichidan 10-12 foizga kam bajarilgan. Bunga inson omili va nazoratning yetarli emasligi sabab bo'lgan. Sababi o'sha paytlarda nazorat tizimi hozirgidek emas edi, natijada ayrim soliq yig'uvchilar halillik tamoyillariga amal qilmasdan, soliqdan qanchadur qismini o'z manfaatlar uchun ishlatgan holatlar bo'lmaga deya olmaymiz. Hozirgi kunda esa bunday holatlarni oldini olish uchun raqamli tizimlar, elektron nazorat va etilgan. Bu tizim shaffoflikni oshirish, adolatlilikni taminlash va eng muhimi har bir hodim o'z ishiga yarasha maosh olishini imkonin yaratmoqda. Bu tizim orqali soliq organlarining asosiy faoliyati ham aniq baholanib kelinmoqda. Baholash jarayonida xodimlarning ma'suliyati, soliq yig'implarni bajarishi va hujjat yuritish sifati kani mezonlar inobatga olinadi. Shuningdek, KPI natijalari rahbarlar uchun tahliliy vosita sifatida xizmat qiladi. Misol uchun KPI usuli joriy 2025-yil iyul oyidagi ko'rsatkichlar shuni ko'satmoqdaki "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimi orqali olib borilgan baholash natijalariga ko'ra, respublikamizda soliq inspektorlarining umimiy KPI ko'rsatkichi 67.7 ballni tashkil etdi. Bu raqamlar shuni anglatadiki, O'zbekistonda ham KPI tizimi ishlamoqda va ma'lum miqdorda foyda ham olib kelmoqda. Ko'plab hodimlar maqsad qilinganidek ishlashga harakat qilmoqda, ammo haligacha 100bal yig'a lgan hodim kuzatilgani yo'qligi sababli biz bu tizimni yanda takomillashtirishimiz, raqamlashtirishimiz va eng muhimi hodimlarni o'qitishimiz, malaka oshirish dasturlarini rivojlantirishimiz zarur. Ammo bu davlatimiz uchun oz bo'lsa ham ijobiy signal ekanligini unutmasligim ham kerak. Eng muhim narsalardan bizi oldingi yillarga qaraganda natijalar yaxshilangan.

Xulosa qilib aytganda, soliq tizimini samarali boshqarishda va korrupsiyani oldini olishda KPI tizimi muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv orqali soliq organlari hodimlari o'z natijalari asosida baholanadi va eng muhimi albatta rag'batlantirib boriladi. Shu bilan birga, tizimni yanada takomillashtirish va hodimlarni o'qitish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Soliq ma'murchiligini takomillashtirish to'g'risidagi PQ-4568-son Qarori. Toshkent, 2019-yil
2. O'zbekiston respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti – www.soliq.uz

3. Maxmudov.O.X. “Soliq tizmini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari” – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.
4. Maxmudov.O.X, Orziqulova.M.N “Fiskal siyosat va uning islomiy tamoyillar bilan uyg‘unligi” 2025.

